

**BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LAR HISOBI VA ICHKI AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH**

G‘anijonova Mehrinoz Abdunabi qizi
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada budjetdan tashqari mablag‘lar shakllanishi hamda ichki audit tizimini takomillashtirish masalalari nazariy jihatdan hamda amaliy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy asarlar hamda Sergeli tuman tibbiyot birlashmasining 2021-2023-yillardagi moliyaviy hisobotlari tahlil qilindi. Natijalar tibbiyot birlashmasining moliyaviy mustaqilligini oshirishda budjetdan tashqari mablag‘larning chuqur ahamiyat kasb etishini va sarflanishi ustidan ichki audit tizimini joriy etish zaruriyatini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: budjetdan tashqari mablag‘lar, moliyaviy shaffoflik, ichki audit tizimi, diversifikatsiya, tibbiyot birlashmasi, xorij tajribasi.

Abstract: The article examines the issues of forming extra-budgetary funds and improving the internal audit system from both theoretical and practical perspectives. During the research process, regulatory legal documents, scientific works, and the financial reports of the Sergeli District Medical Association for 2021-2023 were analyzed. The results demonstrated the profound importance of extra-budgetary funds in enhancing the financial independence of the medical association and the necessity of implementing an internal audit system to control their expenditure.

Keywords: extra-budgetary funds, financial transparency, internal audit system, diversification, medical association, foreign experience.

Аннотация: В статье изучены вопросы формирования внебюджетных средств, а также совершенствования системы внутреннего аудита, как с теоретической, так и с практической точек зрения. В процессе исследования были проанализированы нормативно-правовые документы, научные труды и финансовые отчёты Сергелийского районного медицинского объединения за 2021-2023 годы. Результаты показали глубокую значимость внебюджетных средств для повышения финансовой самостоятельности медицинского объединения и необходимость внедрения системы внутреннего аудита для контроля за их расходом.

Ключевые слова: внебюджетные средства, финансовая прозрачность, система внутреннего аудита, диверсификация, медицинское объединение, зарубежный опыт.

KIRISH

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyasining samaradorligini oshirish, budjet mablag'laridan oqilona foydalanish hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat moliyaviy boshqaruv tizimida muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda, xususan budjet tashkilotlari faoliyatini moliyaviy jihatdan diversifikatsiya qilish, ularning o'z mablag'larini shakllantirish va foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Budjetdan tashqari daromadlar — bu davlat tomonidan ajratiladigan asosiy budjet mablag'laridan tashqari, tashkilotlar tomonidan o'z faoliyati natijasida shakllantiriladigan moliyaviy resurslar bo'lib, ularning hisobini to'g'ri yuritish, maqsadli sarflanishini ta'minlash va samarali ichki audit orqali nazorat qilish hozirgi kunda yanada muhim masalaga aylangan.

Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida budjetdan tashqari daromadlarni shakllantirish, ularni to'g'ri hisobga olish va ichki audit mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiyot birlashmalari faoliyatida budjetdan tashqari mablag'lar — aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish, xalqaro grantlar, homiylik yordamlari hamda shartnoma asosida bajariladigan ishlar orqali shakllanadi. Ushbu mablag'larning samarali hisobini yuritish va ularning sarflanishi ustidan ichki nazorat o'rnatish, shaffoflikni ta'minlash davlat moliyasini mustahkamlashning muhim yo'nalishidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21- avgustdagi PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyot muassalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi qaroriga ko'ra, ta'lim va tibbiyot muassasalarida budjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda budjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan budjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqish nazarda tutilgan. Shu maqsadda, budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditini takomillashtirish mavzusini xalqaro tajribalar bilan solishtirgan holatda chuqur o'rganilib, mamlakatimizga mos keladigan konseptual model tuzish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi, shakllanishi hamda uning moliyaviy nazorati to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida quyidagilarni ta'kidlab o'tishgan.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi 414-sonli “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida budjetdan tashqari mablag‘larning shakllanish manbasi va yo‘naltiriladigan xarajatlar tarkibi haqida qisqacha aytib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda tasdiqlangan “Budjet kodeksi” budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Budjetdan tashqari mablag‘lar ushbu kodeksning 60,61,62 – moddalarida nazarda tutilgan tartibda shakllantiriladi.

Iqtisodchi olim A.Tuychiyevning ta‘kidlashicha, davlat moliyasini boshqarish, budjet intizomini ta‘minlanishi, davlat budjeti mablag‘larining shakllantirilishi hamda samarali va maqsadli sarflanishida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Budjet tizimi ko‘p tarmoqli bo‘lib, unda budjet tizimi budjetlari alohida ahamiyatga ega (Tuychiyev, A 2018).

Tadqiqotchilar Allen va Radev budjetdan tashqari mablag‘lar (Extrabudgetary Funds — EBF) bo‘yicha xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ushbu institutlarning davlat moliyasidagi o‘rni va ularning fiskal siyosatga ta‘sirini chuqur o‘rganishga qaratilgan deb hisoblashgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, o‘rtacha hisobda EBFlar markaziy hukumat xarajatlarining 40 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Bu esa, ularning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar moliya tizimida qanchalik muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Xususan, OECD mamlakatlarida faoliyat yurituvchi ayrim EBFlar moliya vazirligi tomonidan qattiq nazorat qilinadigan, puxta boshqaruv tizimiga ega davlat agentliklari shaklida faoliyat yuritadi (Allen va Radev, 2006).

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) ishchi hujjatlarida budjetdan tashqari mablag‘lar (Extrabudgetary Funds – EBF) davlat moliyasining muhim, ammo murakkab tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, EBFlar — bu davlat ma‘muriy organlari tomonidan **oddiy budjet jarayonidan tashqarida boshqariladigan resurslar** bo‘lib, ular maxsus hisoblar, maqsadli fondlar yoki budjetdan tashqari daromadlar shaklida tashkil etilishi mumkin. Muallifning fikricha, bunday fondlarning mavjudligi davlat xarajatlarini rejalashtirishda shaffoflik va nazoratni murakkablashtiradi, biroq ular ayrim hollarda **maqsadli dasturlarni moliyalashtirishda samarali mexanizm** bo‘lib xizmat qiladi (Christien, W 1999).

Tibbiyot tizimidagi budjetdan tashqari moliyaviy manbalarni jalb qilish, ularni oqilona va maqsadli taqsimlash hamda monitoring mexanizmlarini takomillashtirish orqali tashkilotning moliyaviy mustaqilligi va xizmat sifati oshirilishi mumkinligi asoslab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrda PQ-4930-sonli qaroriga asosan budjet tashkilotlari faoliyatini rag‘batlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek, tibbiy xizmatlar sifatini

oshirish maqsadida budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armalari tashkil etilishi belgilab qo'yilgan (Yuldashev, N 2025).

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, induksiya-deduksiya, trend (dinamik) tahlil, strukturaviy tahlil, ko'rsatkichlar tahlili, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida davlat budjeti tizimi muhim o'rin egallaydi. Budget mablag'lari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini bajarish, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotni tartibga solish hamda rag'batlantirish, mudofaa va bandlikni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlarni moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, budget mablag'larining diversifikatsiyasi ularning samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va aholining farovonligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib, budget tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning budgetdan tashqari mablag'larini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Budjedan tashqari mablag'lar va ular bo'yicha tuziladigan smetalar quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob – kitoblardan tushgan mablag'lar;
- ✓ Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;
- ✓ Vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralarning budgetdan tashqari jamg'armalari;
- ✓ O'qitishning to'lov – kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar;
- ✓ Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;
- ✓ Boshqa budgetdan tashqari mablag'lar.

Yuqorida bayon etilgan nazariy jihatlar va amaldagi normativ asoslar tahlili shuni ko'rsatadiki, budgetdan tashqari mablag'lar tizimi davlat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Endilikda ushbu masalani amaliy jihatdan yoritish maqsadida Sergeli tuman tibbiyot birlashmasining 2021–2023-yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida budgetdan tashqari mablag'lar hisobining holati va dinamikasi tahlil qilindi. Tibbiyot birlashmasining budgetdan tashqari faoliyatini kompleks baholash uchun nafaqat daromadlar, balki uning moliyaviy holati (balans) va faoliyat natijalari (moliyaviy hisobot) ham 2021–2023-yillar davomida chuqur o'rganildi. Tahlil qiyosiy, strukturaviy, trend va ko'rsatkichlar tahlili usullari asosida amalga oshirildi.


➤ Byudjetdan tashqari daromadlar tarkibi va ularning dinamikasi

2021–2023-yillar davomida tibbiyot birlashmasining byudjetdan tashqari daromadlari sezilarli o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. 1-jadvalda TMMRJT va BMMJ doirasida olingan daromadlarning yillik ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. Byudjetdan tashqari daromadlarning yillik tarkibi, ming so'm

Daromad manbai	2021	2022	2023	O'zgarishi 2023/2021 (%)
TMMRJT daromadlari	1 388 851,40	3 261 712,00	2 384 222,00	71,70%
<i>shu jumladan:</i>				
– 5% byudjet ajratmasi	1 229 358,70	3 261 056,00	–	–
– Boshqa daromadlar	159 492,70	656	2 384 222,00	1395%
BMMJ daromadlari	286 512,10	91 471,60	58 580 418,10	20380%
<i>shu jumladan:</i>				
– Taqsimlanadigan tushumlar	260 048,80	89 720,80	56 408,80	–78,3%
– Bemorlardan ovqatlanish to'lovlari	–	–	52 763 176,10	–
– Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	–	–	5 729 603,20	–
Jami byudjetdan tashqari daromadlar	1 675 363,50	3 353 183,60	60 964 640,10	3538%

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, byudjetdan tashqari daromadlar umumiy hajmi 2023-yilga kelib 60,9 mlrd so'mgacha o'sdi, bu 2021-yilga nisbatan 35 baravar ko'pdir. Asosiy o'sish 2023-yilda kiritilgan **bemorlardan ovqatlanish to'lovlari** va **fuqarolar tashabbusi jamg'armasi** hisobiga amalga oshdi.



1-rasm. Byudjetdan tashqari daromad tarkibining o'zgarishi (%)
(Grafikda 2021 va 2023-yillardagi TMMRJT va BMMJ ulushi solishtirilgan)

Tibbiyot birlashmasining byudjetdan tashqari daromadlari tarkibi 2021–2023-yillar mobaynida keskin o'zgargan. 2021-yilda asosiy ulush (82,9%) TMMRJT hisobiga to'g'ri kelsa, 2023-yilda BMMJ ulushi 96,1% ni tashkil etdi. Bu byudjetdan tashqari faoliyatning tabiatini o'zgartirgan yangi daromad manbalarining paydo bo'lishini ko'rsatadi.

➤ Daromad manbalari bo'yicha strukturaviy tahlil

2-jadval. Budjetdan tashqari daromad manbalari tarkibi, %

Daromad manbai	2021	2022	2023
TMMRJT	82,9	97,3	3,9
BMMJ	17,1	2,7	96,1
<i>shu jumladan:</i>			
– Bemorlardan ovqatlanish to'lovlari	–	–	86,5
– Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	–	–	9,4
– Boshqa manbalar	17,1	2,7	0,2

Strukturaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, tashkilot byudjetdan tashqari faoliyatida **diversifikatsiya** jarayoni kuzatilmoqda: 2021-yilda deyarli butunlay byudjet ajratmasiga bog'liq bo'lgan tashkilot, 2023-yilda bemorlar va fuqarolar tomonidan moliyalashtiriladigan faoliyatni joriy qilgan.

➤ Xarajatlar va daromadlar tahlili

Budjetdan tashqari daromadlarning o'sishi bilan birga xarajatlar ham sezilarli o'sish kuzatildi. 4-jadvalda daromadlar va xarajatlarning nisbati tahlil qilinadi.

3-jadval. Daromadlar va xarajatlarning nisbati, ming so'm


Ko'rsatkich	2021	2022	2023
Jami daromadlar	1 675 363,50	3 353 183,60	60 964 640,10
Jami xarajatlar	1 446 729,50	2 278 531,10	62 922 919,20
Balans	228 634,00	1 074 652,50	-1 958 279,10

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2023-yilda birinchi marta **salbiy moliyaviy natija** (-1,96 mlrd so'm) kuzatildi, bu xarajatlarning daromadlardan oshib ketganini ko'rsatadi.

➤ Trend tahlili asosida daromadlarning o'sish sur'atlari

Byudjetdan tashqari daromadlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari hisobi quyidagi natijalarni berdi:

- **TMMRJT daromadlari:** 2021–2023-yillar davomida o'rtacha yillik o'sish 37,1% ni tashkil etdi. Biroq, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 26,9% pasayish kuzatildi.
- **BMMJ daromadlari:** 2021–2023-yillar davomida o'rtacha yillik o'sish 1420% ni tashkil etdi, asosan 2023-yildagi o'sish hisobiga.



2-rasm. Byudjetdan tashqari daromadlarning yillik o'sishi, %

(Grafikda TMMRJT va BMMJ ning yillik o'sish sur'atlari ko'rsatilgan)

➤ Xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil

Rivojlangan mamlakatlardagi byudjetdan tashqari mablag'larni boshqarish tajribasi bilan solishtirish maqsadida quyidagi tahlil amalga oshirildi:

4-jadval. Xalqaro solishtirma tahlil

Ko'rsatkich	O'zbekiston (Sergeli TTB)	Buyuk Britaniya (NHS)	Germaniya	Estoniya
Asosiy daromad manbai	Bemorlardan to'lovlar (86,5%)	Byudjet (75%)	Sug'urta to'lovlari (85%)	Byudjet + litsenziya to'lovlari
Hisob usuli	Kassaviy asosda	Hisoblash asosida	Hisoblash asosida	Raqamli platforma
Shaffoflik darajasi	Cheklangan	Yuqori	O'rtacha	Juda yuqori
Ichki nazorat	Zaif rivojlangan	Mustaqil audit qo'mitasi	Ichki audit xizmati	Avtomatlashtirilgan tizim

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

birinchidan, budjetdan tashqari mablag'lar hisobining kassaviy usulda yuritilishi ma'lumotlarning aniq tahlilini cheklaydi. Bu muammoga yechim sifatida budjetdan

tashqari mablag‘lar hisobini **hisoblash (akkumulyatsiya)** usuliga o‘tkazish taklif qilinadi;

ikkinchidan, audit xulosalari ko‘p hollarda formal xarakterda bo‘lib, samaradorlik bahosi berilmaydi. Bu holatda tibbiyot birlashmasida **mustaqil ichki audit qo‘mitasini** tashkil etish tavsiya etiladi;

uchinchidan, moliyaviy boshqaruvda raqamli texnologiyalar kam qo‘llaniladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun **raqamli audit tizimini** joriy etish va barcha moliyaviy hisobotlarni yagona elektron platformada yuritish lozim.

to‘rtinchidan, daromad manbalari diversifikatsiyasi yetarli darajada amalga oshirilmagan. Budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirishda **diversifikatsiya strategiyasini** qo‘llash amaliy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (PQ-3231, 2017) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi “Ta’lim va tibbiyot muassalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-3231-son qarori
2. Allen, R., Radev, D., 2006. Managing and Controlling Extrabudgetary Funds.
3. Christine, W., 1999. 938880WP0Box380etary0funds00PUBLIC0.
4. Ostonokulov, A., Alimardonov, A., 2024. Budjetdan_tashqari_mablaglar_hisobi_va_nazoratini.
5. Tuychiyev, A., Ostonokulov, A., Ibragimov, S., Tursunov, S., 2018. “Byudjet_hisobi_Darslik_A_J_Tuychiyev_va_boshqalar_Toshkent_2018,.” Toshkent.
6. Yuldashev, N., 2025. Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari (xorazm viloyati tibbiyot birlashmasi misolida). 62 4.